

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda kekxa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

SIYOSAT

K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

JAMIYATDA GENDER TENGLIKNING SHAKLLANISH JARAYONI

ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ОБЩЕСТВЕ

THE PROCESS OF THE FORMATION OF GENDER EQUALITY IN SOCIETY

Sharipova Kamola Usmonjonovna¹¹Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizasiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishi, ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi, xotin qizlar harakatining vujudga kelish omillari, BMT gender tengsizligining xalqaro indeksi, gender assimetriyasi - hayotning turli sohalarda ikkala jinsning ijtimoiy va madaniy rollarining, shuningdek, ular haqidagi g'oyalarning nomutanosibligi hisoblanishi kabi ma'lumotlar ilmiy tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье анализ женского вопроса в связи с развитием общества показал, что большое значение приобретает социальное единство людей, семья, традиции, культура, международные и межцивилизационные отношения, религия, организация труда и общественные организации, необходимые для выживания в обществе, вопрос о равенстве женщин и мужчин, факторы возникновения женского движения, Международный индекс гендерного неравенства ООН, гендерная асимметрия - научно исследована такая информация, как расчет диспропорций социальных и культурных ролей обоих полов в разных сферах жизни, а также представлений о них.

Abstract

As a result of the analysis of the issue of women in connection with the development of society in the article, the importance of social unity of people, family, customs, culture, international and inter-civilizational relations necessary for living as a society, religion, labor and association with public organizations, the issue of equal rights of women and men, factors of the emergence of - data such as the calculation of the social and cultural roles of both sexes in different areas of life, as well as the imbalance of ideas about them, have been scientifically researched.

Kalit so'zlar: gender, sofizm, Gender assimetriyasi, ibtidoiy tuzum, ishsizlik, konvensiya, Shakerlar, indeks.

Ключевые слова: пол, софизм, гендерная асимметрия, примитивный режим, безработица, условность, шейкеры, индекс

Key words: gender, sophism, Gender asymmetry, primitive system, unemployment, convention, Shakers, index

KIRISH

Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizasiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar. Gender g'oyasigacha o'tish evolyusiyasi mobaynida quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o'tildi. Mazkur bosqichlar tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularning turli adabiyotlarda keltirilishi bo'yicha izohlab o'tadigan bo'lsak dastavval diniy konfessional taqiq tizimi amal qilgan[1].

Tarixiy manbalar aynan ayolni insoniyat madaniyatining asoschisi deb atashadi. Haqiqatdan ham mehnatning ibtidoiy jamoa tuzumida taqsimlanishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil yig'uvchilar vazifasini bajarganlar. Faqat ayolgina yerdan to'yimli o'simlik ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar lichinkasini qazib olish bilan mashg'ul bo'lgan. Rivoyatlarda olovni kashf etganlar erkaklar timsolida uchraydi. Ayollar olovning xususiyatlarini o'rganish, uni turmushda qo'llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zarurlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan[2].

Ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelgan. Miloddan 400-yillar avval yashagan sofist Antifont o'z asarlarida barcha odamlarning tabiat tomonidan teng qilib yaratilganligi haqidagi g'oyani birinchilardan bo'lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlar o'zlarini tengsiz holatga soluvchi qonunlar odamlarning o'zaro kelishuvi natijasidir. Tabiiy huquqlar tengligi va barcha odamlarning erkinligi haqidagi g'oyani sofizm oqimining boshqa

FALSAFA

namoyondalarida ham uchratamiz. Jumladan, Likofroning fikricha, faqat qonunlarga shaxsiy huquqlarning kafolati bo'lishi mumkin[3].

Xotin-qizlar harakati dastavval Shimoliy Amerikada, 1775-1783-yillar davomida mustaqillik uchun kurash sharoitida va Fransiyada 1789-1794-yillardagi inqilob davrida vujudga keldi[4]. 1914-yil 8-martda xotin-qizlar kuni bayram sifatida bir vaqtning o'zida 6 mamlakat – Avstriya-Vengriya, Belgiya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya va Shveysariyada ilk marta keng nishonlandi[5]. Dastlabki feministlar xotin-qizlarning ezilishi hamda ularning erkaklarga qaramligi sabablarini izlar ekan, ularni ham huquqiy va ijtimoiy jabhalarda ko'radi. Ularning qarashlari feministik dunyoqarash, keyinchalik feministik nazariya shaklini oldi. Biroq, feministlarning xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va kengaytirish borasidagi chiqishlari jamiyat uchun kutilmagan bo'lib, hammada va hatto ayollar orasida ham ijobiy qabul qilinmagan.

O'tmishda ham, hozirgi paytda ham feministik harakatlar ayollar huquqlari uchun kurashmoqda: saylov huquqi, davlat lavozimini egallash huquqi, mehnat va teng maosh olish huquqi, mulk huquqi, ta'lim olish, bitimlarda ishtirok etish, nikohda teng huquqlar, onalik ta'tiliga chiqish huquqi, tana huquqi avtonomiya va daxlsizlik (ayollar va qizlarni zo'rlash, jinsiy zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish) va boshqalar[6].

G'arb mamlakatlaridagi ayollar harakati tarixi to'rtta "to'lqin"ga bo'lingan[7].

"Birinchii to'lqin" asosan XIX asr va XX asr boshlarida suffragetlar harakatiga taalluqli bo'lib, unda turmushga chiqqan ayollarning mulk huquqi va ayollarning ovoz berish huquqi asosiy masala bo'lgan;

«Ikkinchi to'lqin» deganda, 1960-yillarda rivojlana boshlagan, ayollar va erkaklarning to'liq huquqiy va ijtimoiy tengligini targ'ib qiluvchi ayollar ozodlik harakati bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar va harakatlar tushuniladi;

"Uchinchi to'lqin" "ikkinchi to'lqin"ning davomi va uning qator muvaffaqiyatsizliklariga munosabatdir. "Uchinchi to'lqin"ning paydo bo'lishi 1990-yillarga to'g'ri keladi[8] va feministlar o'rtasidagi jinsiy urushlar bilan bog'liq. Ushbu munozara va keyinchalik anti-pornografik feminizm va jinsiy-pozitiv feminizm o'rtasidagi feminizm ichidagi chuqur bo'linish ikkinchi to'lqin davrining oxiri va uchinchi to'lqinning boshlanishi hisoblanadi[9].

"To'rtinchi to'lqin" 2013-yilda boshlangan bosqichdir. Ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, internet faolligi, kesishuv nazariyasini qo'llash va marginallashtirilgan ijtimoiy guruhlarni, xususan, rangli (irqiy) ayollar va trans ayollarni himoya qilish bilan tavsiflanadi[10].

Garchi feministik harakatlar ayollar huquqlariga qaratilgan bo'lsa-da, ba'zi feministlar erkaklar ozodlik harakatini feministik kun tartibiga kiritishni targ'ib qilmoqdalar, chunki jamiyatning patriarxal tashkiloti va an'anaviy gender rollari, ularning fikriga ko'ra, erkaklarga ham zarar yetkazadi[11]. Shu bilan birga, boshqa feministlar erkaklar huquqlarini erkaklar o'zlari hal qilishlari kerak deb ta'kidlaydilar[12].

BMT gender tengsizligining xalqaro indeksini tuzib, tenglik rivojlanishini kuzatib boradi. U quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga asoslanadi:

- Bandlik darajasi;
- Ta'lim darajasi;
- Parlamentlardagi o'rinlar ulushi;
- O'smir qizlar orasida homiladorlik va tug'ish holatlari;
- Onalar o'limi darajasi.

Ushbu indeks, kamdan-kam istisnolardan tashqari, gender tengligi iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqligini ko'rsatadi, eng yuqori ko'rsatkichlar asosan rivojlangan mamlakatlarda va eng past ko'rsatkichlar kam rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Sahroi Kabirdan janubiy Afrikagacha.

Erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikka erishish dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida vaziyat va muammolar har xil kechgan bo'lsada, shunga qaramay, xotin-qizlar va erkaklarning mehnat bozorida mavqeyi, ularning qadriyat va an'analarga asoslangan jamiyat hamda oilalarda ijtimoiy mavqeyini ifodalovchi umumiy qonuniyatlar mavjud. Bu qonuniyatlar gender tenglikni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi. Gender bu umuman olganda – erkaklar va ayollarning umumiy tenglik nuqtai nazaridan farqlarini va tomonlarning barcha yo'nalishlardagi haqiqiy o'rnini aks ettiruvchi tushuncha hisoblanadi[13].

Ayniqsa, rahbarlik lavozimlarida va qarorlar qabul qilish darajasida, shuningdek, ijtimoiy sheriklarning vakillik funksiyalarini amalga oshirishda gender muvozanatini ta'minlash lozim.

Umuman olganda biz "gender tenglik"ning asl mohiyatini anglashimiz uchun, avvalo uning kelib chiqish tarixiga murojaat qilamiz. Bu tabiiy borliq emas, balki ijtimoiy tuzilish bo'lib ma'lum bir ma'noda insonning o'zligini anglashga shu bilan birga shaxsiy "Men"ini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Gender tushunchasi, uning shakllanishi, o'rganilishi fanlararo bog'liqlik asosida tadqiq etishni talab qilgani asnosida, ushbu tushunchani barcha fan sohalari nuqtai nazardan tadqiq etish kerakligini taqozo etadi. O'z davrida turli fan vakillari ushbu masalaga alohida e'tibor bilan yondashib kelishgan. Xorijlik olimlardan T.Parsons, I.Goffman, P.Berger, T.Lukman, R.Konnell, K.Uest, D.Simmerman, Chagatay Nilufer, L.Kim va boshqalar gender tushunchasiga doir asarlarida turlicha tadqiq qilishgan.

Jinslarni ajratish va qat'iy nikohsizlikni qo'llagan Shakerlar guruhi (tahr – Masihning ikkinchi ko'rinishiga imonlilarning Birlashgan Jamiyati, ko'proq Sheykerlar nomi bilan ma'lum bo'lib, millenar restavratsion xristian sektasiga asoslangan. 1747-yilda Angliyada, keyin esa 1780-yillarda AQShda tashkil etilgan) gender tengligining dastlabki amaliyotchilari edi. Ular 1774-yili Amerikaga hijrat qilishdan oldin Angliyaning shimoliy-g'arbiy qismidagi Quakerlar jamoasidan ajralib chiqqan. 1788-yilda Shakerlar markaziy vazirligining boshlig'i Jozef Meachem jinslar teng bo'lishi kerakligini vahiy qilgan. Shundan so'ng u ayol hamkasbi bo'lmish Lyusi Raytni vazirlikka olib keldi va ular birgalikda jinslar huquqlarini muvozanatlash uchun jamiyatni qaytadan qurishga harakat qilishdi. Meachem va Rayt yetakchilik guruhini tuzishdi. Bunda asosan erkaklar erkaklar ustidan nazoratni o'rnatishgan; ayollar esa ayollar ustidan nazoratni o'rnatishdi. Bu ularning ma'naviy farovonligini shakllantirishiga ishonidilar. Shakerlar jamoasida ayolni erkak tomonidan boshqarilishi shart emas edi. 1796-yilda Meachemning o'limidan so'ng, Rayt vafotigacha Shakerlar jamoasining rahbari bo'ldi. Shakerlar 200 yildan ortiq vaqt davomida gender muvozanatini bir xil modelini saqlab qolishdi. Bunda har bir jinsiy aloqa (biologik jinsiy aloqa, psixologik jinsiy aloqa) o'ziga xos faoliyat sohasida ishlaydi, bu o'z asnosida ayol erkakka, erkak esa ayolga hurmat ila bo'ysinishi ko'zda tutilgan[14].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Shu o'rinda Gender assimetriyasi tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, gender assimetriyasi bu - hayotning turli sohalarda ikkala jinsning ijtimoiy va madaniy rollarining, shuningdek, ular haqidagi g'oyalarning nomutanosibligi hisoblanadi. Rossiya oliy ta'limning gender assimetriyasi bilan bog'liq muommolarini tahlil qildi. Tahlil qilish uchun universitetlarning veb-saytlari, Rossiyaning rasmiy statistikasi, BMT, Jahon iqtisodiy forumida taqdim qilingan ma'lumotlardan foydalanildi va gender farqi, gender tenglik bo'yicha dolzarb statistik ma'lumotlar taqdim qilindi. Rossiyada 1999-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra aholining 53%i ayollar bo'lib, Davlat Dumasining atiga 7% ini ayollar tashkil qilgan. Tarixga biroz nazar tashlaydigan bo'lsak, sobiq SSSR davrida xalq xo'jaligining boshqa sohalarda ayollar erkaklar bilan teng mehnat qilgan, ammo xususiyatlashtirish natijasida yirik tadbirkorlar orasida ularning ulushi atiga 3% ni tashkil qilgan. Bugungi kunda oliy ma'lumotli ayollar salmog'i Rossiyada 56% ni tashkil qilsada, ularning umumiy daromadi erkaklar daromadining 40% dan oshiqrog'ini tashkil qiladi. Rossiya mamlakatida oliy ta'lim tizimida ayollar ustunlik qiladi. Tahlillar Rossiyada gender tengsizlik so'nggi 10 yil ichida kamayganligini ko'rsatadi. Rossiya oliy ta'limidagi gender assimlyasiyasini tahlili boshqaruv sohasida erkaklarning ustunligi bilan belgilanadi. Shu jumladan, boshqa sohalarda masalan, san'at va madaniyatda ham mavjud. Ammo boshqaruvda erkaklar ustuvorlik qiladi. Jumladan Rossiyada erkak rektorlar 84%, ayol rektorlar 16% ni tashkil qiladi. Dekan, kafedra mudiri lavozimlarini ham asosan erkaklar egallagan bo'lib, ayollar asocan quyi lavozimlarni ko'proq band qilgan. BMT tahliliy statistik ma'lumotlariga ko'ra gender tengligi masalasida O'zbekistonning yutuqlari sifatida, mamlakat 99,6%i savodxonlikka egaligi gender jihatdan sezilarli bo'shliqqa ega emasligi ko'rsatilgan[15].

XIX asr oxirida g'arb madaniyatida ayollarga ovoz berish va saylangan lavozimlarni egallashga ruxsat berish boshlandi. 1948-yilda BMT tomonidan Gender tengligi bo'yicha yakdil qonun loyihasi ishlab chiqildi, ammo bu mamlakatlar negizida bir xil qabul qilinmadi. Bu qonun loyihasini izdoshlari Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi konvensiya (1960); Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979); Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi (Inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasida, 1993-yilda qabul qilingan); Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklarasiya (1993); 5-maqсад: 2030-yilgacha belgilangan Barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadining "Gender

FALSAFA

tengligi” va boshqalarni misol qilish mumkin. Insoniyat bu masalada jiddiy muammolarga duch kelmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolar o‘rtasidagi gender tenglikka asoslangan muhitni saqlash, mustahkamlash, qadriyatlar, urf-odat va an‘analarining hurmat qilinishi hamda to‘liq ta‘minlanishi nazariy modellashtirilganligi va umuminsoniy qadriyatlar mezonlariga asoslanganligi ochib berilgan.

XULOSA

Shunday qilib, 2020–yilda BMTning atigi 143 mamlakati Konstitutsiya darajasida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni kafolatlagan va 52 davlat bu qadamni qo‘ymagan. Dunyodagi har uchinchi ayol jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi. Turmushga chiqqan yoki fuqarolik ittifoqida bo‘lgan ayollarning atigi 57 foizi jinsiy aloqalar, kontraseptiv vositalardan foydalanish va reproduktiv salomatlik xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Yana bir muammo – mehnatni kamsitish. Ayollar ishsizlik darajasi sezilarli darajada yuqori, ular rahbarlik lavozimlarini egallash ehtimoli ancha past va gender ish haqi farqi global miqyosda 23% va qishloq joylarda 40% gacha. Masalan, Rossiyada erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ish haqi farqi 28%ni tashkil qiladi. Bularning asosiy ideologiyasi reproduktiv huquqlar bo‘yicha xizmatlar va gender tengligi targ‘ib qilish va ayollarga nisbatan tazyiqni to‘xtatish strategiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Нерсесянц, История идей правовой государственности. М.: 1993. – С.59.
2. Бебель А. Социализм и женщина. М.: Госполитиздат. 1959. – С. 49.
3. Фуломжонов О.Р. Жамият тараққиётининг янги босқичида гендер тенгликни таъминлашнинг ижтимоий аҳамияти. «Scientific progress» Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 4. – Б. 235-242. <http://www.scientificprogress.uz/>
4. History of Woman in West. / Gen. eds. G.Duby, M.Perrot V.I Cambridge (Mass.), 1992.
5. Ражабов Қ., Қандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар: қисқача сиёсий тарихи ва муҳим саналари. Т.2. – Т.: “Ўзбекистон”, 2015. - Б. 121.; Normatov O.M. Some Features of Regional Policy in Turkestan // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), e-ISSN: 2456- 6470, 2021. –Pp.53-55.
6. Echols, Alice[en]. Daring to Be Bad: Radical Feminism in America, 1967–1975 (англ.). — Minneapolis: University of Minnesota Press[en], 1989.
7. Humm, Maggie (1990), wave (definition), in Humm, Maggie, The dictionary of feminist theory, Columbus: Ohio State University Press. 1990. – С. 251.; Rebecca, Walker. Becoming the Third Wave // Ms.[en] : magazine. — New York: Liberty Media for Women, 1992. – P. 39-41.
8. Charlotte Krolokke, Anne Scott Sorensen. Chapter 1. Three Waves of Feminism: From Suffragettes to Grrls // Gender Communication Theories and Analyses: From Silence to Performance. — SAGE, 2006.
9. Duggan, Lisa; Hunter, Nan D. Sex wars: sexual dissent and political culture. — New York: Routledge, 1995.; Hansen, Karen Tranberg; Philipson, Ilene J. Women, class, and the feminist imagination: a socialist-feminist reader (англ.). — Philadelphia: Temple University Press[en], 1990.; erhard, Jane F. Desiring revolution: second-wave feminism and the rewriting of American sexual thought, 1920 to 1982. — New York: Columbia University Press, 2001.; Leiboldt, Dorchen; Raymond, Janice G. The Sexual liberals and the attack on feminism (англ.). — New York: Pergamon Press, 1990.
10. Diamond, Diana. “The Fourth Wave of Feminism: Psychoanalytic Perspectives”. Studies in Gender and Sexuality. №10 (4): 2009. – P. 213-223.; Cochrane, Kira. All the Rebel Women: The Rise of the Fourth Wave of Feminism : [англ.]. — London : Guardian Books, 2013.
11. Feminism is for Everybody: Passionate Politics. — Pluto Press, 2000.
12. Елена Георгиевская. Почему я феминистка? <https://magazines.gorky.media/ural/2013/6/pochemu-ya-feministka.html>
13. Абдурахманова Ж.Н. Замонавий жамиятда гендер тенглиги таъминлаш - устувор вазифа сифатида. Academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 9 | 2021. – Б. 400-406.
14. Lucky, Katherine. “The Last Shakers?”. Commonweal. Retrieved December 13, 2019.
15. <https://resources.norrag.org/resource/576/education-sector-planesp-of-uzbekistan2019-2023>.